



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 322 sahifa,
18-may, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<i>Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</i>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
<i>Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<i>Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</i>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni	23
<i>Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</i>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
<i>B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<i>Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<i>Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</i>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
<i>A. Safarov</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<i>Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</i>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
<i>Xolmurodova Sarvinov</i>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<i>G'afforova Dildora Ergashevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<i>Yusupova Umida Zayniddin qizi</i>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<i>Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</i>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
<i>Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</i>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
<i>Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<i>Xurramova Sojida Abdunazar qizi</i>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari	91
<i>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</i>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
<i>Z. N. Urunova, M. Jaborova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
<i>Sattorova Shirinoy San'atovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<i>Buvrayev Akram Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
<i>Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</i>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
<i>Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</i>	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaniing psixologik determinantlari hamda klinik jihatlarini	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
<i>Bozorov Otabek Yo'ichi o'g'li, Yakubova Asaxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля kameraproctor	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Ислонбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'k'lanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyeich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction	205
<i>A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova</i>	
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati	208
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari	214
<i>Ismoilova Muattar Ilyosovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari	219
<i>Alqarov Qodir Xolmatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li</i>	
Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish	222
<i>Murodova Sayyora Qanoatovna</i>	
Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari	226
<i>Norboyeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari	230
<i>Abdunabiyeva Kamola Mansurovna</i>	
Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili	236
<i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>	
Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	240
<i>Kozimov Sayfullah Maxammadjon o'g'li</i>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish	245
<i>Raximov Zokir Toshmirovich</i>	
Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari	249
<i>Temirov Shoirbek Raimjonovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish	253
<i>Kimsanova Rahnamo Solijonovna</i>	
Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish	257
<i>Muratov Muzaffar Shermamatovich</i>	
Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari	261
<i>Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari	264
<i>Oblayeva Lobar Erdonovna</i>	
STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations	268
<i>Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi</i>	
Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari	272
<i>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi	276
<i>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</i>	
Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools	279
<i>S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova</i>	
Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration	282
<i>Shahlo Obidova</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish	286
<i>Shodmonova Shoir Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi</i>	
Talabalarining to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari	290
<i>Turakulova Feruza Mamadoli qizi</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	



MAKTAB VA MUZEYLAR ALOQADORLIGINI TA'MINLASH ASOSIDA O'QUVCHILARNI MA'NAVIY MEROSGA HURMAT RUHIDA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI



Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Texnologik ta'lim kafedrası assistent-o'qituvchisi

Annotatsiya: Maktab va muzeylar o'rtasidagi uzviy hamkorlik o'quvchilarda ma'naviy merosga hurmat, milliy qadriyatlariga sadoqat hamda tarixiy ongni shakllantirishning muhim omili sifatida talqin etiladi. Muzei pedagogikasining didaktik imkoniyatlari, interaktiv metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, madaniy merosni anglash va ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktab, muzei, muzei pedagogikasi, ma'naviy meros, milliy qadriyatlar, tarbiya, innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar, tarixiy ong, madaniy meros, hamkorlik.

Abstract: Cooperation between schools and museums is interpreted as an important factor in fostering students' respect for spiritual heritage, national values, and historical awareness. The article analyzes the didactic potential of museum pedagogy, interactive methods, and innovative pedagogical technologies aimed at developing students' independent thinking, cultural awareness, and social activity.

Key words: school, museum, museum pedagogy, spiritual heritage, national values, education, innovative technologies, interactive methods, historical awareness, cultural heritage, cooperation.

Аннотация: Взаимодействие школы и музея рассматривается как важный фактор формирования у учащихся уважения к духовному наследию, национальным ценностям и историческому сознанию. Проанализированы дидактические возможности музейной педагогики, интерактивные методы и инновационные педагогические технологии, направленные на развитие самостоятельного мышления, культурного мировоззрения и социальной активности учащихся.

Ключевые слова: школа, музей, музейная педагогика, духовное наследие, национальные ценности, воспитание, инновационные технологии, интерактивные методы, историческое сознание, культурное наследие, сотрудничество.

KIRISH

Xalqaro miqyosda maktab va muzeylar aloqadorligida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalash zarurati globallashtirish, raqamli transformatsiya va madaniy identifikatsiya jarayonlari kesishgan nuqtada yanada ortib bormoqda.

Zamonaviy yosh avlodning tarixiy xotira, milliy o'zlik va madaniy qadriyatlardan uzoqlashish xavfi sharoitida ta'lim tizimining diqqat markaziga madaniy merosni o'quv-tarbiyaviy resurs sifatida kiritish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shundan kelib chiqib, maktab va muzeylar aloqadorligida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash, pedagogik modellashtirish, pedagogik texnologiyalarni hamda baholash mezonlarini takomillashtirish zarurati mavjud.

Respublikamizda maktab va muzeylar aloqadorligida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalashning dolzarbligi va zarurati "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da¹ belgilangan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, milliy qadriyatlarni tiklash va yoshlarni tarixiy xotira ruhida tarbiyalash ehtiyoji bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda ta'lim tizimida faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarni milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni qadrlash va uni asrashga mas'uliyatli yondashuv ruhida shakllantirish ustuvor vazifa sifatida

¹ "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmon. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti, 2022.

qo'yilmoqda. Prezident farmonlari va qarorlarida, xususan, "Ma'naviyat va ma'rifat sohasini yangi bosqichga ko'tarish"², "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish"³ hamda "Tarixiy-madaniy meros obyektlarini asrash"⁴ doir hujjatlarda maktab va muzeylar o'rtasidagi pedagogik integratsiya zaruriy shart sifatida e'tirof etilgan. Bunday hamkorlik o'quvchilarning tarixiy tafakkurini, estetik idrokini va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda samarali vosita bo'lib, ularni o'z xalqining madaniy ildizlariga sodiq, ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu sababli, respublikamizda maktab–muzey aloqadorligini rivojlantirish ma'naviy tarbiya tizimini takomillashtirishning dolzarb va strategik yo'nalishiga aylangan.

Texnologiya (yun. *techne* – san'at, mohirlik, uquv va ...logiya) – sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarida mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim, shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug'ullanadigan fan⁵.

Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi malakasiga erishish usullari, texnik ketma-ketliklar va ulardan ish jarayonida eng yaxshi natijalarga erishish uchun foydalanishni ifodalovchi jarayondir. Pedagogik texnologiya ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi bo'lib, u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir. Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi va o'zlashtiradi. Metod – biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat⁶.

"Pedagogik texnologiya – psixologik va pedagogik o'g'itlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi" (B. Lixachev). "Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi" (V. P. Bepalko). "Pedagogik texnologiya – rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi" (I. P. Volkov). "Texnologiya – ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi" (V. M. Shepel). "Pedagogik texnologiya – tinglovchi va o'qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha pedagogik faoliyatining har tomonlama o'ylangan modelidir" (V. M. Manaxov). "Pedagogik texnologiya – o'zida turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta'riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi" (G. K. Selevko)⁷.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

B.R. Adizovning⁸ ilmiy qarashlari "innovatsion pedagogik texnologiyalar" tushunchasini o'zbek pedagogikasida shakllantirishda muhim o'rin tutadi. U o'qitish jarayonini ijodiy va interfaol muhitda tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi. Adizovning fikricha, pedagogik texnologiya – bu o'quvchini mustaqil fikrlash, o'z pozitsiyasini himoya qilish va yangilik yaratishga yo'naltiruvchi boshqariluvchi tizimdir. Olim ta'lim jarayonida "muammoli o'qitish", "klaster texnologiyasi", "debat metodikasi" va "ijodiy laboratoriya yondashuvi" kabi texnologiyalarni samarali qo'llashni taklif etadi. Uning tadqiqotlarida o'qituvchi – o'z fanining "innovatsion muhit dizayneri", o'quvchi esa "muallif sifatida yaratuvchi shaxs" sifatida talqin qilinadi. Adizov ta'limni texnologiyalashtirishda milliy qadriyatlar va zamonaviy innovatsiyalar uyg'unligini saqlashni metodologik tamoyil sifatida ilgari surgan.

S. Rajabov⁹ pedagogik texnologiyani didaktikaning yangi bosqichi sifatida o'rganib, ta'lim jarayonining strukturaviy-tizimli modellarini ishlab chiqqan. U "ta'lim jarayonini loyihalash texnologiyasi" konsepsiyasini yaratgan bo'lib, bunda o'qitish jarayoni diagnostika → rejalashtirish → amalga oshirish → monitoring → refleksiya bosqichlari asosida tashkil etiladi. Rajabovning qarashlarida texnologik yondashuv o'qituvchining ilmiy-pedagogik mahoratini rivojlantiradi, chunki u o'qituvchini "tashkiliy-dizayner" roliga olib chiqadi. U o'qitishning an'anaviy shakllarini yangicha texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali "pedagogik innovatsion sikl" g'oyasini ishlab chiqqan. S. Rajabovning ilmiy xulosasiga ko'ra, texnologik yondashuv o'quvchining fikrlash madaniyatini, o'zini o'zi nazorat qilish qobiliyatini va refleksiv tafakkurini shakllantiradi.

M. H. Mahmudov¹⁰ o'z tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalarni axloqiy va ma'naviy tarbiya jarayonlari bilan uyg'unlashtirish masalasini o'rganadi. U "ma'naviy-aksiologik pedagogik texnologiya" tushunchasini kiritgan bo'lib, bu yondashuvda ta'limning markazida inson qadriyati, milliy meros va ijtimoiy mas'uliyat turadi. Mahmudovning fikricha, texnologik yondashuv shaxsni faqat bilim bilan emas, balki tarbiyaviy qadriyatlar

- 2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Ma'naviyat va ma'rifat sohasini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ–5937-son qaror. – Toshkent, 2020-yil 26-fevral.
- 3 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Ma'naviyat va ma'rifat sohasini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ–5937-son qaror. – Toshkent, 2020-yil 26-fevral.
- 4 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Tarixiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5030-son Farmon. – Toshkent, 2017-yil 19-may.
- 5 Технология хақида – У ким, бу нима – Qomus.INFO
- 6 pedagogik texnologiya nima - Поиск (bing.com)
- 7 Soxibaxon ped.texnologiya.doc (renessans-edu.uz)
- 8 Adizov B.R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish. – Toshkent: TDPU, 2014. – 180 b.
- 9 Rajabov S. Pedagogik jarayonni loyihalash texnologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2013. – 176 b.
- 10 Mahmudov M.H. Ma'naviy-aksiologik pedagogik texnologiyalar tizimini shakllantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 228 b.



bilan boyitadigan boshqariluvchi jarayon bo'lishi zarur. U ta'lim jarayonini "axloqiy refleksiya" bosqichlari orqali loyihalashni taklif etadi. Olimning texnologik modeli "bilish → qadrlash → his etish → amal qilish" ketma-ketligi orqali shaxsning ma'naviy faoliyatini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Mahmudovning ilmiy qarashlari milliy g'oya, ma'naviyat va texnologiyaning integratsiyasi asosida ta'limning insonparvarlik paradigmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'. Roziqovning¹¹ tadqiqotlari pedagogik texnologiyalarni kasbiy ta'lim va malaka oshirish tizimi bilan bog'laydi. U texnologik yondashuvni o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida talqin etadi. Olim "kasbiy refleksiya texnologiyasi", "modulli o'qitish", "malaka oshirishning interfaol modeli" tushunchalarini nazariy asoslab bergan. Roziqovning fikricha, zamonaviy pedagogik texnologiya o'qituvchini "passiv bilim beruvchi emas, balki faol metodik dizayner" sifatida shakllantiradi. U o'qitish jarayonida "feedback" mexanizmi, "elektron portfel", "kompetensiyaviy xarita" kabi texnologik vositalarni qo'llashni tavsiya etadi. Roziqovning pedagogik qarashlari shaxsiy refleksiya, o'zini baholash va kasbiy yangilanishni ta'lim texnologiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan kompleks metodlardan foydalanildi. Ma'lumotlarni yig'ishda pedagogik kuzatish, suhbat, anketa-so'rovnoma, diagnostik test hamda taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida umumta'lim maktablari o'quvchilari, o'qituvchilar va muzey xodimlarining hamkorlik faoliyati o'rganildi hamda muzey pedagogikasining ta'lim-tarbiyaviy jarayonga ta'siri monitoring qilindi. O'quvchilarning ma'naviy merosga munosabati, tarixiy tafakkuri, estetik idroki va milliy qadriyatlarga sadoqat darajasini aniqlash maqsadida maxsus diagnostik mezonlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotda olingan ma'lumotlar sifat va miqdor jihatdan tahlil qilinib, ularning pedagogik samaradorligi qiyosiy tahlil asosida baholandi. Shuningdek, muzey eksponatlari bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning refleksiv fikrlashi, mustaqil xulosa chiqarishi va ijtimoiy faolligi dinamikasi kuzatildi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda statistik tahlil, interpretatsiya va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Natijada maktab va muzey integratsiyasiga asoslangan pedagogik texnologiyalarning o'quvchilarda ma'naviy, estetik va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy jihatdan asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Loyihalash, evristik ta'lim, muammoli ta'lim va illyustrativ ta'lim texnologiyalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar tizimining o'zaro bog'liq turlari bo'lib, ular maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash orqali o'quvchilarda ma'naviy merosga hurmat, milliy qadriyatlarga e'tibor va tarixiy xotiraga sodiqlikni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar nafaqat bilim berish vositasi, balki shaxsning ma'naviy, estetik va intellektual rivojlanishiga xizmat qiluvchi integrativ o'quv muhitini yaratadi.

Loyihalash texnologiyasi o'quvchilarni ma'naviy merosni o'rganish jarayoniga faol subyekt sifatida jalb etish imkonini beradi. Ularning mustaqil izlanishlari, tarixiy faktlarni tahlil qilish, muzey eksponatlari asosida ma'naviy mazmunli loyiha yaratish faoliyatini shakllantiradi.

Evristik ta'lim texnologiyasi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, izlanish, tahlil qilish va ma'naviy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Evristik yondashuvda o'qituvchi tayyor bilim manbai emas, balki o'quvchi tafakkurini yo'naltiruvchi hamroh sifatida namoyon bo'ladi. Muzey muhitida evristik metodlar o'quvchining o'z kuzatuvlari, eksponatlar bilan o'zaro muloqoti, tarixiy voqealarga nisbatan shaxsiy baho berish jarayonida samarali ishlaydi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi esa o'quvchini intellektual faoliyatga, tahliliy tafakkurga, tarixiy voqelikni anglashga yo'naltiradi. Ushbu texnologiya asosida o'quvchilarga ma'naviy meros bilan bog'liq muammoli vaziyatlar taklif etiladi.

Ilyustrativ ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning idrok, xotira va hissiy qabul qilish jarayonini faollashtiradi. Muzey muhitida bu texnologiya tabiiy tarzda namoyon bo'ladi, chunki muzeyning o'zi ko'rgazmali o'quv muhiti hisoblanadi. Ilyustrativ texnologiya yordamida o'quvchi tarixiy eksponatlar, suratlar, arxiv hujjatlari, artefaktlar orqali o'tmish hayotini ko'rish, his etish va tushunish imkoniga ega bo'ladi.

Kompetensiya – bu shaxsning ma'lum faoliyat sohasida samarali harakat qilish, muammolarni hal etish va o'z bilim, ko'nikma, qadriyat hamda tajribasini amalda qo'llay olish qobiliyatidir. U faqat nazariy bilim emas, balki shaxsning intellektual, ijtimoiy, axloqiy, kommunikativ va amaliy tajribasini birlashtiruvchi integral sifat ko'r-

11 Roziqov O'. Kasbiy ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari. – Toshkent: TDPU, 2019. – 204 b.

satkichidir. Kompetensiya shaxsning “nima biladi” emas, balki “bilganini qanday qo'llay oladi” degan savolga javob beradi.

“Kompetensiya” so'zi lotincha “competentia” so'zidan olingan bo'lib, “moslik”, “munosiblik”, “qobiliyat” ma'nolarini bildiradi. U dastlab boshqaruv, psixologiya va sotsiologiya fanlarida ishlatilgan, keyinchalik pedagogika sohasiga ham kirib kelgan. Lug'aviy ma'noda bu atama shaxsning ma'lum sohada yetarli bilim, malaka va tajribaga ega bo'lib, ularni amaliyotda samarali qo'llay olishini anglatadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, kompetensiya – bu o'quvchining o'z bilim va tajribasini real hayotiy vaziyatlarda tatbiq etish, muammolarni hal etish, qaror qabul qilish, muloqotga kirishish va o'z faoliyatini baholay olish qobiliyatidir. U shaxsning o'zini anglash, mustaqil fikrlash va ijtimoiy moslashuv darajasini belgilovchi muhim sifatdir.

Kompetensiya tushunchasi ta'lim jarayonida “bilim, ko'nikma va malaka”dan kengroq ma'noga ega bo'lib, u kognitiv (bilim va tushuncha), operatsional (amaliy faoliyat), motivatsion (ichki rag'bat), ijtimoiy (muloqot va hamkorlik) hamda aksiologik (qadriyatga asoslangan) komponentlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida “kompetensiya” tushunchasi 2017-yildan boshlab kompetensiyaga asoslangan davlat ta'lim standartlari (DTS)da rasmiy qo'llanila boshlandi. Unga ko'ra, ta'lim natijalari endilikda faqat bilim miqdori bilan emas, balki o'quvchining ularni amaliyotda qo'llay olish darajasi bilan baholanadi.

Shunday qilib, “kompetensiya” so'zi ilmiy-pedagogik mazmunda shaxsning bilim, ko'nikma, tajriba, qadriyat va faoliyatini uyg'unlashtiruvchi integral sifat ko'rsatkichini anglatadi. U shaxsni bilimli bo'lishdan tashqari, o'z bilimini ijodkorlik bilan tatbiq etuvchi, ijtimoiy faol va mas'uliyatli inson sifatida shakllantirishning poydevori hisoblanadi.

Kompetensiya tushunchasi shaxsning intellektual salohiyatini ma'naviy va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlashtiradi. Ma'naviy kompetensiya shaxsni axloqiy jihatdan to'g'ri yo'naltiradi; axloqiy kompetensiya xatti-harakatni ijtimoiy me'yorlar bilan boshqaradi; estetik kompetensiya go'zallikni anglash orqali ichki dunyoni boyitadi; ijtimoiy kompetensiya esa jamiyatda faol ishtirok etishni ta'minlaydi. Shu tariqa, kompetensiya – bu insonning bilimi, malakasi va qadriyatlari o'rtasidagi uyg'unlik, ya'ni ta'limning natijaviy mazmunini ifodalovchi integrativ ko'rsatkichidir.

Ma'naviy tayanch kompetensiya insonning o'zligini anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni idrok etish, ularni amaliy hayotda ifoda etish qobiliyatini bildiradi. Bu kompetensiya o'quvchida tarixiy xotira, ajdodlar merosiga hurmat, e'tiqod, vijdon, halollik va insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Ma'naviy kompetensiya shaxsni ichki barqarorlik, mas'uliyat va fuqarolik burchini his etishga yo'naltiradi. Maktab va muzeylar aloqadorligi jarayonida bu kompetensiya o'quvchilarning milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni qadrlash, tarixiy dalillarni tahlil etish va ularni shaxsiy hayotiy qadriyatga aylantirish faoliyatida rivojlanadi.

Axloqiy tayanch kompetensiya shaxsning ijtimoiy muhitda o'z xatti-harakatlarini axloq me'yorlari, burch va mas'uliyat tamoyillari asosida boshqarish qobiliyatidir. Bu kompetensiya o'quvchilarga o'zaro hurmat, adolat, halollik, mehr-oqibat, bag'rikenglik, odob, madaniy muomala va insoniy qadriyatlarga amal qilishni o'rgatadi.

Estetik tayanch kompetensiya – bu insonning go'zallikni anglash, san'at, madaniyat va hayotdagi estetik qadriyatlarni baholay olish, ularni o'z hayotida ifoda etish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya o'quvchilarning san'at, arxitektura, tabiat, tarixiy obidalar, milliy naqshlar va madaniy belgilar orqali go'zallikni his etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ijtimoiy tayanch kompetensiya o'quvchining jamiyatda faol ishtirok etish, ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri qurish, jamoada ishlash, kommunikativlik va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatidir. U shaxsning ijtimoiy tajriba asosida o'z o'rnini topish, boshqalar bilan hamkorlikda ishlash, jamoa oldida fikr bildirish, madaniy muloqotga kirishish va ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmaslik sifatlarini shakllantiradi.

Mazkur to'rtta tayanch kompetensiya o'zaro uzviy bog'liq tizimni tashkil etadi: ma'naviy kompetensiya insonning ichki dunyosini boyitadi, axloqiy kompetensiya uni jamiyat me'yorlari bilan uyg'unlashtiradi, estetik kompetensiya go'zallikni his etish orqali ruhiy olamni yuksaltiradi, ijtimoiy kompetensiya esa insonni faol fuqarolik pozitsiyasiga olib chiqadi. Shunday qilib, bu kompetensiyalar majmuasi o'quvchini nafaqat bilimli, balki ma'naviy barkamol, estetik didga ega, ijtimoiy mas'uliyatli va axloqan yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, ularning barchasi maktab va muzeylar o'rtasidagi pedagogik aloqadorlikning ma'naviy-tarbiyaviy samaradorligini oshiruvchi poydevor vazifasini bajaradi.

O'qituvchi didaktik maqsadlarni aniqlaydi, sinf darajasidagi ehtiyojlarni diagnostika qiladi, baholash mezonlarini ishlab chiqadi; muzey xodimi esa eksponatlar va ekspozitsiya ssenariylari, manbashunoslik materiallari, interaktiv vositalar bilan ta'minlaydi, muzey muhitida o'quv faoliyatining xavfsiz va mazmunli kechishini boshqaradi. Har bir darsdan oldin qo'shma rejalashtirish, dars davomida qo'shma fasilitatsiya, yakunda qo'shma refleksiya amalga oshiriladi. Shu tarzda o'quvchi muzeyni “jonli manba”, maktabni esa nazariy-angloviy tayanch sifatida boshdan kechiradi.



Ma'naviy, axloqiy, estetik va ijtimoiy tayanch kompetensiyalar integratsion tarzda shakllanadi; tarixiy xotira, milliy g'urur va merosni asrash mas'uliyati mustahkamlanadi; o'quvchi muzeyni ijtimoiy-ma'naviy muloqot maydoni sifatida qabul qiladi.

O'qituvchi – jarayon dizayneri, muzey xodimi – mazmun kuratori, o'quvchi esa tadqiqotchi va yaratuvchi rolda faol bo'ladi. Shu tariqa, rasmda ko'rsatilgan hamkorlik modeli maktab va muzeyni yagona tarbiyaviy-ekologik tizimga aylantirib, o'quvchini ma'naviy merosga hurmat ruhida yetuk shaxs sifatida tayyorlashning samarali, dalilga tayangan va qayta tatbiq etiladigan pedagogik texnologiyasini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktab o'qituvchisi va muzey xodimi hamkorligida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchi shaxsining kognitiv, aksiologik va faoliyatli tajribasini birlashtiradi. O'qituvchi didaktik jarayonni rejalashtiradi va baholashni boshqaradi, muzey xodimi esa tarixiy-madaniy muhitni yaratadi, interaktiv vositalar orqali ta'sirchan o'quv tajribasini ta'minlaydi. Bu hamkorlik o'quvchini milliy o'zlikni anglovchi, madaniy merosni qadrllovchi, ijodkor va fuqarolik mas'uliyatiga ega shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur model va texnologiyalar asosida shakllanadigan asosiy tayanch kompetensiyalar – ma'naviy, axloqiy, estetik va ijtimoiy kompetensiyalar – o'quvchining shaxsiy rivojlanish mezonlari sifatida namoyon bo'ladi. Bu kompetensiyalar integratsion yondashuv orqali o'zaro bog'liq holda shakllanadi:

- ma'naviy kompetensiya – qadriyatli tafakkurni, axloqiy kompetensiya – xulq madaniyatini,
- estetik kompetensiya – go'zallikni his etishni,
- ijtimoiy kompetensiya esa jamiyatdagi faol ishtirokni ta'minlaydi.

Natijada o'quvchi tarixiy xotira, milliy g'urur va madaniy merosni asrash mas'uliyatiga ega barkamol shaxs sifatida yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdukarimov X. Kasbiy fanlarni o'qitishda integrativ modellashtirishning uslubiy asoslari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2017.
2. Alimqulova D. Muzeylar faoliyati va ta'lim integratsiyasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari: PhD dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Bobojonova G. Muzeylarning jamiyat hayotidagi o'rnini kuchaytirishning innovatsion yo'llari: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – Toshkent, 2018.
4. Boytullayev R. Muzeylarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ilmiy-metodik asoslari: Pedagogika fanlari bo'yicha PhD avtoreferati. – Toshkent, 2020.
5. Jo'rayev R. X. O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga oid nazariy yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2015.
6. Jo'rayev R. X. Ta'lim jarayonida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari: Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2003.
7. Karimov A. S. Muzei ta'limining didaktik imkoniyatlari asosida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish: Pedagogika fanlari bo'yicha PhD dissertatsiyasi. – Toshkent, 2017.
8. Roziqov O'. Kasbiy ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari. – Toshkent: TDPU, 2019. – 204 b.
9. Adizov B. R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish. – Toshkent: TDPU, 2014. – 180 b.
10. Rajabov S. Pedagogik jarayonni loyihalash texnologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2013. – 176 b.
11. Mahmudov M. H. Ma'naviy-aksiologik pedagogik texnologiyalar tizimini shakllantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 228 b.
12. Soxibaxon ped.texnologiya.doc (renessans-edu.uz).
13. "Texnologiya haqida – U kim, bu nima" – Qomus.INFO.
14. "Pedagogik texnologiya nima" – Поиск (Bing).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.